

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NAZIROV SHOHJOHON SOBIROVICH

**MURAKKAB ARALASHMALAR TARKIBIDAGI Cu(II), Zn(II) VA
Ni(II) IONLARINI 7-BROM-2-NITROZO-1-GIDROKSINAFTALIN-3,6-
DISULFOKISLOTASI YORDAMIDA SPEKTROFOTOMETRIK
ANIQLASH USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.02-Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz-2025

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical
science**

Nazirov Shohjohon Sobirovich

Murakkab aralashmalar tarkibidagi Cu(II), Zn(II) va Ni(II) ionlarini 7-brom-2-nitrozo-1-gidroksinaftalin-3,6-disulfokislotasi yordamida spektrofotometrik aniqlash usullarini ishlab chiqish..... 3

Назирова Шохжохон Сабирович

Разработка спектрофотометрических методов определения ионов Cu(II), Zn(II) и Ni(II) в составе сложных смесей с использованием 7-бром-2-нитрозо-1-гидрокси-нафталин-3,6-дисульфокислоты21

Nazirov Shohjohon Sobirovich

Development of spectrophotometric methods for the determination of Cu(II), Zn(II), and Ni(II) ions in complex mixtures using 7-bromo-2-nitroso-1-hydroxynaphthalene-3,6-disulfonic acid39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVIRSITETI

NAZIROV SHOHJOHON SOBIROVICH

**MURAKKAB ARALASHMALAR TARKIBIDAGI Cu(II), Zn(II) VA
Ni(II) IONLARINI 7-BROM-2-NITROZO-1-GIDROKSINAFTALIN-3,6-
DISULFOKISLOTASI YORDAMIDA SPEKTROFOTOMETRIK
ANIQLASH USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.02-Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/K1025 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (termizdu@umail.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turayev Xayit Xudaynazarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sultonov Marat Mirzayevich
kimyo fanlari doktori, professor

Qutlimurodova Nigora Hakimovna
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning «29» XII 2025-yil soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№345 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» XII kuni tarqatildi.
(2025-yil «15» XII da 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.I.Umbarov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

Sh.A. Kasimov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash kotibi, k.f.d., prof.

Z.Z.Yaxshiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik
Ilmiy seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ilm-fan, texnika, tibbiyot, atrof-muhit, oziq-ovqat va ishlab chiqarish mahsulotlarining turli xil sanoat chiqindilari hamda og‘ir va zaharli metall ionlari bilan ifloslanishi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan kuchli ekologik muammolarni keltirib chiqarayotganligi sababli, ularni kelib chiqishini oldini olish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Sanoatda og‘ir va zaharli metall ionlaridan oqilona foydalanish hamda ularning mikromiqdorini aniqlashda ekspress, arzon va selektiv bo‘lgan yangi uslublarni ishlab chiqish hamda nazorat qilish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa tabiiy suvlar, rudalar, sanoat chiqindi mahsulotlari va boshqa murakkab aralashmalar tarkibidagi Cu(II), Zn, Ni(II) ionlarini miqdoriy aniqlash usullarini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlarda og‘ir va zaharli metall ionlarini eritma holatida yordamida spektrofotometrik aniqlash usullari bilan tabiiy va oqova suvlar tarkibidan aniqlash, rudalar va sanoat chiqindilaridan ajratib olish, ularning tarkibini aniqlashning tanlab ta’sir etuvchan va yuqori sezgir usullarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyoning yetakchi olimlari tomonidan og‘ir va zaharli metall ionlarini, jumladan, Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini aniqlashda yangi kompleks hosil qiluvchi funksional analitik guruhlarini saqlagan organik analitik reagentlarni qo‘llash orqali yuqori sezgirlikni, selektivlikni va ekspresslikni oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatini rivojlantirishda atrof-muhit obyektlari tarkibidan Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini aniqlashning sodda va arzon usullarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlashda sanoat, ilm fan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish” vazifalari belgilab berilgan. Bu borada respublikamizda Cu(II), Zn va Ni(II) kabi metall ionlari kimyo, aviatsiya, tibbiyot va xalq xo‘jaligi sanoatlarida keng qo‘llanilayotganligi sababli, ularni aniqlashning zamonaviy, ishonchli, ekspress va iqtisodiy jihatdan arzon usullarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining¹ 2022-yil 28-yanvardagi № PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonlari hamda 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-338-sonli “Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi №PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganganlik darajasi: Bu sohada ishlariga eng koʻp havolalar qilingan quyidagi chet el olimlari: A.N.Vernigora, Y.N. Guskova, K.V.Katrich, N.D.Shepina, I.V.Misnik, A.Z.Zalov, Y.Karaman, T.A.Ali, A.F.Mohammed, S.J. Baqir, L.Zhao, E.Tesfaye, A.Sreekanth, T.V.Antonova, S. A. Chernenko, B.Ranganath, O.I.Yurchenko, A.S.Batrak, X.D. Li, Q.Z.Zhai, H.J.Mohammed, R.Khanam, S.Khan, R.Dashora, A.Giri, T.S.Reddy, N.Chandrasekhar, P.A.Borade, A.S. Gupta, V.D. Barhate, V.A.Funtikov, E.V.Shtrans, O.V.Chekun, S.Z.Mohammadi, D.Afzali va boshqalar metall ionlarini, shuningdek, Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlashning rivojlantirilishiga oʻzlarining salmoqli hissalarini qoʻshganlar.

Zamonaviy oʻzbek olimlari ham bu ilmiy yoʻnalishda munosib oʻrin egallab kelmoqda. Xususan, akademik Sh.T.Tolipov va uning shogirdlari R.X. Djiyanbayeva, N.B.Babayev, A.T.Tashxodjayev, T.Q.Xamraqulov, A.M. Gevorgyan, K.Z.Raxmatullayev, I.P. Shesterova, A.M.Nasimov, N.T.Turabov, E.Abduraxmanov, X.X.Turayev, O.F.Fayzullayev, Z.A.Smanova, Z.Z.Yaxshiyeva, va boshqa olimlarning soʻnggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida yangi organik analitik reagentlarning sintezi va ularni amaliyotga joriy etish boʻyicha sezilarli yutuqlarga erishildi. Tadqiqotlar jarayonida taklif etilgan reagentlar yordamida tahlil usullarining sezgirligi, selektivligi va aniqligi yuqori darajaga koʻtarilib, ularning keng qoʻllanish imkoniyatlari ilmiy asosda isbotlandi. Ammo, yangi organik reagentlardan foydalanib Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash uchun, ekologik va analitik tahlillarda tadqiqotlar, amaliyotda yetarlicha oʻrganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F7-34 “Kompleks hosil qiluvchi polifunksional ionitlar sintezi va ular yordamida baʼzi d-metallarni ajratishning nazariy asoslari” (2017-2020-yy) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini yangi organik reagent yordamida kompleks hosil qilish reaksiyasining spektrofotometrik aniqlash usulida maqbul sharoitlarini aniqlash hamda eksperss uslublarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini aniqlashda yangi reagent 7-brom-2-nitrozo-1-gidroksinaftalin-3,6-disulfokislotasidan (BNOKS-S,S-3,6) foydalanib turli komplekslarning hosil boʻlish sharoitlarini optimallashtirish va ularning oʻzaro taʼsirini aniqlash;

BNOKS-S,S-3,6 va uning metall ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining spektral tavsiflarini aniqlash, shuningdek, haqiqiy molyar soʻndirish koeffisienti, muvozanat konstantalari va barqarorlik konstantalarini hisoblash;

kompleks birikmaning tarkibiy molar nisbati bir nechta mustaqil usullar:

izomolyar serialar, Asmusning to'g'ri chiziqlar va spektrfotometrik titrlash usullari yordamida aniqlash;

hosil bo'lgan komplekslarning taxminiy tuzilish formulalarini kvant-kimyoviy (GaussView 6, Gaussian 09W) hisoblash, UB, IQ va YaMR-¹H-spektroskopiya usullari yordamida taklif etish;

ishlab chiqilgan uslublarning to'g'riligi va qayta tiklanuvchanligini "kiritildi-topildi" usuli yordamida aniqlash, Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini quyi aniqlanish chegarasini o'rnatish, begona ionlar ta'sirini o'rganish hamda olingan natijalarini metrologik baholash;

ishlab chiqilgan uslublarni sun'iy aralashmalar, sanoat qotishmalarining standart namunalari va tabiiy obyektlar analizida qo'llash;

Tadqiqotning obyekti sifatida turli xil tarkibli sun'iy aralashmalar sanoat qotishmalarining standart namunalari va tabiiy obyektlar namunasi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Cu(II), Zn va Ni(II) hamda ularning atrof-muhit obyektlaridagi birikmalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 bilan hosil qilgan kompleks birikmalarni identifikatsiyalashda EMC-30PC-UV spektrofotometrik, UB, IQ-, ¹H-NMR-spektroskopiyasi, kvant-kimyoviy va olingan natijani statistik qayta hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor yangi organik reagent BNOKS-S,S-3,6 ning molyar so'ndirish koeffitsienti va dissosilanish doimiyliklari Komar usuli bilan mos ravishda $\varepsilon=2704$ va $K_{diss}=6,71 \cdot 10^{-8}$ ($pK=7,17$) ga tengligi isbotlangan;

Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini aniqlashning spektrofotometrik usuli uchun maqbul sharoitlari: suvli eritmada pH 4,0-6,5 oraliqdagi kuchsiz kislotali muhitlarda Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinishi 0,5-17,5 mkg; nur yutish maksimumlarining batoxrom siljishlari $\Delta\lambda=85-110$ nm gacha hamda Sendel bo'yicha sezgirliklari 0,00092-0,0011 mkg/sm² oraliqlarda bo'lishi aniqlangan;

BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini hosil qilgan komplekslarining haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsientlarining organik reagentga nisbatan batoxrom siljishi $\varepsilon(NiR_2)=50000 < \varepsilon(ZnR_2) = 51282 < \varepsilon(CuR_2) = 58824$ qatori bo'yicha va hosil bo'lgan kompleks birikmalarning barqarorlik doimiyliklari $lg\beta(NiR_2)=18,87 < lg\beta(ZnR_2) = 18,96 < lg\beta(CuR_2)=19,52$ qatorida ortib borishi aniqlangan;

Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini tabiiy suvlar, standart namunalari va rudalar tarkibidan aniqlashning nisbiy standart chetlanishi S_r 2,25 % dan oshmaydigan, boshqa alternativ DavST usullariga nisbatan analitik va metrologik tavsiflari yuqori bo'lgan uslublari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan uslublar yordamida Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini quyi aniqlanish chegaralari mkg/25,0 sm³ da: CuR₂ uchun 0,196; ZnR₂ uchun 0,247 va NiR₂ uchun 0,249 ga teng ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan kompleks hosil bo'lish reaksiyalarida maqbul sharoitlari: nur yutish maksimumi, eritma muhiti,

bufer aralashmalarining tarkibi, quyilish tartibi, vaqtga nisbatan barqarorligi, reagent miqdori va boshqa analitik hamda metrologik tavsiflari aniqlangan;

Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini sun'iy aralashmalarda, sanoat qotishmalarining standart namunalarida, tabiiy obyektlar tarkibidan BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan aniqlashning yetarlicha sezgir, ekspress, iqtisodiy jihatdan arzon, tanlab ta'sir etuvchan metodikalari ishlab chiqilgan;

Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan sun'iy aralashma va murakkab bo'lgan real obyektlar hamda alyuminiy va mis asosidagi sanoat qotishmalari tarkibidan spektrofotometrik aniqlash usullari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi murakkab aralashmalar tarkibidagi Cu(II), Zn, Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 bilan hosil qilgan kompleks birikmalarni identifikatsiyalashda spektrofotometrik, UB-, IQ- va ¹H-YaMR spektroskopiya kabi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar hamda kvant-kimyoviy hisoblashlar bilan isbotlangan. Tajriba natijalari asosida tahlil qilingan xulosalar matematik statistika usullari bilan qayta ishlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli obyektlar tarkibidagi Cu(II), Zn va Ni(II) ionlariga nisbatan tanlab ta'sir etuvchanlik oshganligi ko'rsatilganligi bilan asoslanadi. Shuningdek, ishda Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan hosil qilgan komplekslarining yutilish spektrlari tanlangan maqbul sharoitlarda olindi. Nur yutilish kontrastligi ($\lambda_{CuR}=110$ nm, $\lambda_{ZnR}=85$ nm, $\lambda_{NiR}=100$ nm), Sendel bo'yicha sezgirliги (Cu(II)=0,00092 mkg/sm², Zn=0,0010 mkg/sm², Ni(II)=0,0011 mkg/sm²) va Tolmachyovning grafik usuli yordamida komplekslarning haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsientlarini ($\epsilon_{CuR}=58824$ l/mol·sm, $\epsilon_{ZnR}=51282$ l/mol·sm, $\epsilon_{NiR}=50000$ l/mol·sm) aniqlanganligi bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan yangi ekologik xavfsiz, selektiv spektrofotometrik uslublarini atrof-muhit obyektlaridan Cu(II), Zn, Ni(II) ionlarini ruxsat etilgan miqdorgacha va undan ancha kichik bo'lgan konsentratsiyalarni individual eritmalardan, sun'iy, binar, tabiiy suv, sanoat qotishmalari va murakkab aralashmalardan aniqlashga imkon beradi, bu esa ushbu og'ir va zaharli metall ionlarining aniq miqdorini turli xil atrof-muhit obyektlaridan aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: murakkab aralashmalar tarkibidagi Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 bilan spektrofotometrik aniqlash usullarini ishlab chiqishda olingan ilmiy natijalar asosida:

ishlab chiqilgan murakkab aralashmalar tarkibidagi Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 bilan spektrofotometrik aniqlash usullari "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ning texnologik suvi tarkibida o'rganilgan metall ionlarining mikromiqdorini aniqlashda qo'llanilgan ("Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ning 2024-yil 07-iyundagi 03-02-11/2022-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan spektrofotometrik usullar texnologik suvi tarkibidagi Cu(II), Zn va Ni(II) ionlar mikromiqdorini aniqlash imkonini bergan;

ishlab chiqilgan spektrofotometrik usullar "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ning sinov laboratoriyasida Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini mikromiqdorini aniqlashda amaliyotga joriy qilingan ("Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ning 2024-

yil 07-iyundagi 03-02-11/2022-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan usullar texnologik suvlar tarkibidan Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini mikromiqdorini aniqlashda tanlab tasir etuvchanligini, sezgirligini, ekspressligini, aniqlikni oshirish hamda analitik hamda metrologik tavsiflarini yaxshilash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan 2 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va uni tanlash zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad hamda vazifalari aniq ko'rsatib o'tilgan. Unda tadqiqot obyektlari va predmetlari yoritilib, olib borilgan ishlarning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga qanchalik mos kelishi ochib berilgan. Shuningdek, ishning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari izchil bayon qilinib, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi ilmiy jihatdan asoslangan. Dissertatsiya natijalarining nazariy hamda amaliy ahamiyati ko'rsatilib, ularni amaliyotga tatbiq etish istiqbollari yuzasidan xulosalar berilgan. Bundan tashqari, mavzu bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlarga hamda dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar taqdim etilgan.


Dissertatsiya ishining **"Cu(II), Zn(II) va Ni(II) ionlarini aniqlashning spektrofotometrik va boshqa fizik-kimyoviy usullari (Adabiyotlar sharhi)"** deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlar sharhlari keltirilgan bo'lib, unda Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini suvli muhitlarda har xil xususiyatga ega bo'lgan turli reagentlar yordamida optik va boshqa usullar bilan aniqlashga bag'ishlangan xorijiy va Respublika nashrlarida keltirilgan ilmiy ishlar bayon etilgan. Atrof-muhit, ichimlik va texnologik suvlar hamda sanoat namunalari ushbu metallar miqdorini nazorat qilish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Adabiyotlarda organik analitik reagentlarning yuqori sezgirligi va selektivligi ta'kidlanib, ular turli metall ionlari bilan reaksiyaga kirishib rangli komplekslar hosil qilishi, hatto kichik miqdordagi ionlarni ham ajratishsiz aniqlash imkonini berishi qayd etilgan. Ushbu tahlillar asosida tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiya ishining **"Kompleks hosil bo'lishining maqbul sharoitlarini o'rnatish, reagent va uning komplekslarini spektrofotometrik tavsiflarini aniqlash"** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uchun kerak bo'lgan standart va ishchi eritmalar tayyorlash usullari keltirilib, BNOKS-S,S-3,6 reagenti yordamida metall ionlari bilan sifat reaksiyalari o'tkazilgan. Kompleks hosil bo'lish jarayonlari uchun optimal sharoitlar tanlanib, ularning spektrofotometrik


xususiyatlari tavsiflangan. Shuningdek, komplekslarning molyar tarkibiy nisbati aniqlangan, BNOKS-S,S-3,6 reagentining Cu(II), Zn va Ni(II) ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining sezgirligi hamda turli konstantalari spektrofotometrik usulda belgilangan.

Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarining BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan hosil qilgan kompleks birikmalarni ertmada spektrofotometrik aniqlash usuli ishlab chiqildi. Maqbul sharoitlar nur yutish maksimumi ($\lambda_{\text{Cu(II)}}=600 \text{ nm}$, $\lambda_{\text{Zn}}=580 \text{ nm}$, $\lambda_{\text{Ni(II)}}=640 \text{ nm}$), eritma pH ($\text{pH}_{\text{Cu(II)}}=4,0$, $\text{pH}_{\text{Zn}}=5,3$, $\text{pH}_{\text{Ni(II)}}=6,5$), bufer aralashmalarning tarkibi, quyilish tartibi (reagent-bufer- M^{2+} -bidistillangan suv), vaqtga nisbatan barqarorligi (240 daqiqagacha), reagent miqdori Cu(II)=1,4 ml, Zn=1,2 ml, Ni(II)=1,0 ml va Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunish sohasi (Cu(II)=0,5-15 mkg/25ml, Zn=1,0-17,5 mkg/25ml, Ni(II)= 1,0-17,5 mkg/25ml) aniqlandi (2-rasm).

Komplekslarning tarkibiy mollar nisbati izomolyar seriyalar, Asmusning to'g'ri chiziqlar va spektrofotometrik titrlash metodlari orqali aniqlanib, barcha usullar bo'yicha mos natijalar qayd etildi. Tadqiqotlar metall va reagent orasidagi nisbat M:R=1:2 ekanligini ishonchli tarzda tasdiqladi.



1-rasm. Cu(II), Zn va Ni(II) kompleks birikmalarining maqbul to'liq uzunliklarini tanlash.



2-rasm. Cu(II), Zn va Ni(II) kompleks birikmalar optik zichligining Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunish grafigi.

1-jadval.


Cu(II), Zn, Ni(II) komplekslarining spektrofotometrik tavsiflari

Analitik tavsiflar	Cu(BNOKS-S,S-3,6) ₂	Zn(BNOKS-S,S-3,6) ₂	Ni(BNOKS-S,S-3,6) ₂
$\Delta\lambda$, nm	110	85	100
S.b.s., mkg/sm ²	0,00092	0,0010	0,0011
ϵ_{haq} , l·mol ⁻¹ ·sm ⁻¹	58824	51282	50000
K_{muv}	15,23	$3 \cdot 10^{-2}$	$1,5 \cdot 10^{-8}$
$\lg\beta$	19,52	18,96	18,87

Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 reagent bilan hosil qilgan kompleksining nur yutilish spektrlari tanlangan maqbul sharoitlarda olindi. Nur yutilish kontrastligi ($\Delta\lambda$), Sendel bo'yicha sezgirligi (S.b.s.), Tolmachyovning grafik usuli yordamida komplekslarning haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsienti (ϵ_{haq}), muvozanat doimiysi, Babkoning suyultirish usuli bo'yicha komplekslarning barqarorlik konstantalari ($\lg\beta$) (1-jadval) va Komar usuli bilan esa reagentning

molyar soʻndirish koeffitsienti ($\epsilon=2704$) hamda dissotsiyalanish konstantasi ($K_{\text{diss}}=6,71 \cdot 10^{-8}$) aniqlandi.

Dissertatsiya ishining “**BNOKS-S,S-3,6 va uning Cu(II), Zn, Ni(II) ionlari bilan komplekslarining fizik-kimyoviy tadqiqotlari hamda aniqlashning selektivligi**” deb nomlangan uchinchi bobida BNOKS-S,S-3,6 reagentining hamda uning Cu(II), Zn(II) va Ni(II) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining kvant-kimyoviy va spektroskopik xossalari chuqur oʻrganildi. Kvant-kimyoviy hisoblashlar (Gaussian 09W, Gauss View 6.0 dasturi (DFT/B3LYP/6-311G)) asosida reagentning optimizatsiyalangan strukturasi, elektrostatik potensial(ESP)(3-rasm), Malliken zaryadlarining taqsimoti, bogʻ uzunliklari va bogʻ tartiblari aniqlanib, kompleks hosil boʻlish jarayonining nazariy asoslari belgilandi. Shuningdek, reagent va komplekslarning energetik koʻrsatkichlari aniqlanib, YuBMO ($-7,09 \text{ eV}$), QBMO ($-4,24 \text{ eV}$) (4-rasm), ionlanish potentsiali ($7,09 \text{ eV}$), elektronga moyillik ($4,24 \text{ eV}$), elektromanfiylik ($5,67 \text{ eV}$), kimyoviy qattqlik ($1,42 \text{ eV}$), kimyoviy yumshoqlik ($0,35 \text{ eV}$), kimyoviy potentsial ($-5,67 \text{ eV}$), elektrofillik indeksi ($11,27 \text{ eV}$) va dipol momenti ($3,06 \text{ debay}$) qiymatlari qayd etildi. Bu koʻrsatkichlar BNOKS-S,S-3,6 reagentining yuqori reaktivlik va barqarorlikka ega ekanligini isbotlaydi.



3-rasm. BNOKS-S,S-3,6 molekulasining ESP(a,b), frontal molekulyar orbitallar:d-YuBMO, e-QBMO.

YaMR- ^1H spektrlari tahlilida esa naftol halqasida 1C atomiga bogʻlangan OH guruhidagi proton signalining yoʻqolishi qayd etilib, bu holat metall ionlari bilan almashinish hisobiga kompleks hosil boʻlishini yana bir bor tasdiqladi (2-jadval).

2-jadval.

BNOKS-S,S-3,6 va uning Cu(II), Zn va Ni(II) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining ^1H -YaMR spektral signallarining kimyoviy siljishlari

Proton signallari tavsifi	BNOKS-S,S-3,6	Cu(II) + BNOKS-S,S-3,6	Zn+ BNOKS-S,S-3,6	Ni(II) +BNOKS-S,S-3,6	m.u
1C-OH	9,011	-	-	-	
8C-H	8,922	8,789	8,660	8,539	
Sulfo guruhi OH	8,219	8,192	8,141	8,017	
4C-H	7,891	7,789	7,723	7,660	
5C-H	7,602	7,466	7,439	7,290	

Komplekslarning hosil boʻlish mexanizmini oʻrganish maqsadida IQ va YaMR- ^1H spektrlari tahlillari oʻtkazildi. IQ spektrlari natijasida Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarining reagentning gidroksil guruhidagi vodorod atomi bilan kovalent bogʻlanish hamda nitrozo ($\text{N}=\text{O}$) guruhi orqali donor-akseptor bogʻlanishlar hosil


qilishi aniqlanib (3-jadval), M:R=1:2 tarkibli komplekslarning hosil bo'lishi asoslab berildi.

3-jadval.

BNOKS-S,S-3,6 va uning Cu(II), Zn va Ni(II) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining IQ-spektrlaridagi yutilish chastotalari

Tebranish tasniflari	BNOKS-S,S-3,6	Cu(II)+BNOKS-S,S-3,6	Zn+BNOKS-S,S-3,6+	Ni(II)+BNOKS-S,S-3,6	cm ⁻¹
v(OH)	3254,88	-	-	-	
δ(OH)	1211,14	-	-	-	
v(N=O)	1623,81	1624,22	1676,10	1626,02	
v _s (C-N)	1086,00	1066,35	1068,36	1058,50	
v _{as} (C-N)	860,34	913,27	882,82	915,29	
v(C-H)	3067,04	3063,13	3027,26	3063,15	
v _s (C-H)	2913,77	2973,13	2922,74	2923,23	
δ(C-H)	1381,02	1328,59	1325,10	1322,07	
v _{as} (C-H)	2835,78	2913,76	2841,70	2856,58	
v(S=O)	959,54	1001,12	967,49	982,19	
v(S-O)	843,72	839,85	825,65	842,70	
v(SO ₃ H)	1299,6,	1274,80	1279,10	1223,77	
v(C-Br)	645,59	654,91	668,75	668,68	
Naftalin haqlasi	727,85	740,23	744,04	738,83	
Obertontebranish	2360,31	2364,80	2360,37	2360,45	
	2341,65	2340,19	2341,70	2341,74	
O-M	-	615,47	499,84	599,78	

Tadqiqot davomida o'rganilgan izomolyar seriyalar metodi, Asmusning to'g'ri chiziqlar metodi, spektrofotometrik titrlash metodi, kvant-kimyoviy hisoblashlar, IQ-spektroskopiya va YaMR-¹H spektroskopiya usullari bir-birini tasdiqladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, M²⁺:R=1:2 tegishli mollar nisbatiga to'g'ri keldi (M=Cu(II), Zn va Ni(II)). Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarining BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan hosil qilgan kompleks birikmalar tuzilishi taklif qilindi.



Tadqiqot natijasida olingan nuqtalarning o'zaro bog'liqligini baholash uchun regression va korrelyatsion tahlil usullari qo'llanildi. Regression tahlil eng kichik kvadratlar usuliga asoslanib, $Y_i = a + bX_i$ tenglamasidagi a va b konstantalarni aniqlash orqali nuqtalarning chiziqchiligi ko'rsatdi. Korrelyatsion tahlil esa tajribaviy nuqtalar o'rtasidagi bog'lanish

darajasini baholash imkonini berdi. Tadqiqot davomida olingan natijalarga ko'ra darajalangan grafik tenglamasi ya'ni

$$\text{Cu(II) bilan BNOKS-S,S-3,6 uchun } Y_i = 2,4 \cdot 10^{-2} X_i + 1,1 \cdot 10^{-3}$$

$$\text{Zn(II) bilan BNOKS-S,S-3,6 uchun } Y_i = 1,9 \cdot 10^{-2} X_i + 8,6 \cdot 10^{-3}$$

Ni(II) bilan BNOKS-S,S-3,6 uchun $Y_i = 1,8 \cdot 10^{-2} X_i + 7,7 \cdot 10^{-3}$ ko'rinishga ega bo'ldi.

Cu(II), Zn(II) va Ni(II) ionlarining BNOKS-S,S-3,6 kompleksi bo'yicha darajalangan grafik tenglamaga asoslanib, optik zichlikning konsentratsiyaga

bog'liqligi "kiritildi-topildi" usuli bilan aniqlanib, maqbul sharoitlarda usulning to'g'riligi va qayta tiklanuvchanligi tekshirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarining olingan miqdori bilan topilgan miqdori bir-biriga to'g'ri keladi, bunda S_r Cu(II) ioni uchun 1,31 %, Zn ioni uchun 1,51 % va Ni(II) ioni uchun 1,87 % dan oshmadi (4-jadval).

4-jadval.

Cu(II) ionining BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan aniqlash usulining to'g'riligi va qayta tiklanuvchanligini natijalari

No	Kiritildi Cu(II), mkg	$A_{1,2,3}$	Topildi Cu(II), mkg	\bar{X}_i	S	Sr, %	ΔX	$X \pm \Delta X$
1.	2,0	0,0500	2,04	2,03	0,024	1,18	0,06	2,03±0,06
		0,0490	2,00					
		0,0500	2,04					
2.	4,0	0,0980	4,04	4,08	0,040	0,98	0,10	4,08±0,10
		0,1000	4,12					
		0,0990	4,08					
3.	6,0	0,1500	6,20	6,12	0,080	1,31	0,20	6,12±0,20
		0,1480	6,12					
		0,1460	6,04					
4.	8,0	0,1960	8,12	8,12	0,080	0,99	0,20	8,12±0,20
		0,1980	8,20					
		0,1940	8,04					
5.	10,0	0,2360	9,79	9,86	0,061	0,62	0,15	9,86±0,15
		0,2380	9,87					
		0,2390	9,91					
6.	12,0	0,2860	11,87	11,88	0,061	0,51	0,15	11,88±0,15
		0,2850	11,83					
		0,2880	11,95					
7.	15,0	0,3660	15,20	15,26	0,066	0,43	0,16	15,26±0,16
		0,3670	15,25					
		0,3690	15,33					

Namunalarni tahlil qilishda aniqlashning quyi chegarasini (Q_{\min}) aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi (5-jadval). 1-3-tenglamalardagi natijalar shuni ko'rsatadiki, Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarining BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan spektrofotometrik aniqlashning quyi chegarasi Cu(II) ioni uchun 0,196 mkg/25ml, Zn ioni uchun 0,247 mkg/25ml, Ni(II) ioni uchun 0,249 mkg/25ml ekanligi aniqlandi.

$$Q_{\min} = \frac{5 \cdot 0,00145 \cdot 25 \cdot 63,546 \cdot 1000}{58824 \cdot 1} = 0,196 \text{ mkg/25ml} \quad (1)$$

$$Q_{\min} = \frac{5 \cdot 0,00155 \cdot 25 \cdot 65,39 \cdot 1000}{51824 \cdot 1} = 0,247 \text{ mkg/25ml} \quad (2)$$

$$Q_{\min} = \frac{5 \cdot 0,00170 \cdot 25 \cdot 58,6934 \cdot 1000}{50000 \cdot 1} = 0,249 \text{ mkg/25ml} \quad (3)$$

Cu(II) ionining BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan Q_{\min} ni topish natijalari

No	Kiritildi Cu(II), mkg	$A_{1,2,3}$	\bar{A}	Topildi Cu(II), mkg	$(A_i - \bar{A})$	$(A - \bar{A})^2 \cdot 10^{-8}$	$S_A \cdot 10^{-3}$	\bar{S}_A
1	2,0	0,0500	0,0497	2,04	0,0003	9,0	0,58	0,00145
		0,0490		2,00	-0,0007	49,0		
		0,0500		2,04	0,0003	9,0		
2	4,0	0,0980	0,0990	4,04	-0,0010	100,0	1,00	
		0,1000		4,12	0,0010	100,0		
		0,0990		4,08	0,0000	0,0		
3	6,0	0,1500	0,1480	6,20	0,0020	400,0	2,00	
		0,1480		6,12	0,0000	0,0		
		0,1460		6,04	-0,0020	400,0		
4	8,0	0,1960	0,1960	8,12	0,0000	0,0	2,00	
		0,1980		8,20	0,0020	400,0		
		0,1940		8,04	-0,0020	400,0		
5	10,0	0,2360	0,2377	9,79	-0,0017	289,0	1,53	
		0,2380		9,87	0,0003	9,0		
		0,2390		9,91	0,0013	169,0		
6	12,0	0,2860	0,2863	11,87	-0,0003	9,0	1,53	
		0,2850		11,83	-0,0013	169,0		
		0,2880		11,95	0,0017	289,0		
7	15,0	0,3660	0,3673	15,20	-0,0013	169,0	1,53	
		0,3670		15,25	-0,0003	9,0		
		0,3690		15,33	0,0017	289,0		

BNOKS-S,S-3,6 ning eng muhim xarakteristikalaridan birini tahlil qilishda foydalanish imkoniyati va usulning selektivligi nuqtai nazaridan tushuntirish uchun Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini begona ionlar mavjudligida aniqlandi. Cu(II) ionining (10,0 mkg) BNOKS-S,S-3,6 reagent yordamida spektrofotometrik aniqlashda xalaqit beruvchi begona ionlar ta'siri o'rganildi. Bunda quyidagi ionlar keltirilgan nisbatda Cu(II) ionini aniqlashda xalaqit bermasligi aniqlandi: K^+ , Na^+ , ClO_4^- , F^- , Cl^- , Br^- , (1:1000); Mg^{2+} , CH_3COO^- , PO_4^{3-} (1:500); Al^{3+} , Ba^{2+} , NH_4^+ , Ca^{2+} , Hg^{2+} , Mn^{2+} , S^{2-} , SO_4^{2-} , NO_3^- (1:100); As^{3+} , Pb^{2+} , $Cr_2O_7^{2-}$, SiO_3^{2-} , (1:60); NO_2^- (1:50); Zn(II) (1:18); Ni(II), tiomochevina (1:7,5); Sn^{2+} (1:4); $C_2O_4^{2-}$ (1:2); $S_2O_3^{2-}$, J^- , (1:1). Xalaqit beruvchi ionlar esa quyidagilar Bi^{3+} , Co^{2+} , Fe^{2+} (1:1); Cd^{2+} (1:0,5). Xalaqit beruvchi ionlarni niqoblash yo'li bilan bartaraf etiladi, jumladan, Fe^{2+} ionlari dastlab H_2O_2 yordamida Fe^{3+} ga oksidlanib, so'ngra, Co^{2+} , Fe^{3+} va Cd^{2+} ionlarini SCN^- anioni bilan hamda Bi^{3+} ionini esa Cl^- bilan niqoblash mumkin.

Dissertatsiya ishining to'rtinchi bobi "Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 reagenti bilan spektrofotometrik aniqlash usullarining analitik qo'llanilishi" deb nomlangan bo'lib, unda Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 reagentidan foydalanib spektrofotometrik usulida aniqlash ishlari olib borilgan. Ishlab chiqilgan usullar va olingan tajriba natijalari matematik statistikaning amaldagi tamoyillari asosida qayta ishlanib, natijalarning ishonchliligi ta'minlandi. Taklif etilgan usullar sun'iy aralashmalar, tabiiy va sanoat obyektlari – jumladan, turli texnologik suv namunalari, metall qotishmalar va rudalarni tahlil qilishda samarali qo'llanilishi mumkinligi aniqlandi.

Ishlab chiqilgan uslublarning qo'llanilish jarayonida turli murakkab tarkibli aralashmalarda ionlarning o'zaro xalaqit berishi niqoblovchi reagentlar orqali bartaraf qilindi. Masalan, Cu(II) ionini aniqlashda xalaqit beruvchi begona ionlarni niqoblash uchun F⁻ va CH₃COO⁻ ionlaridan 1:200 nisbatda qo'shildi. Zn va Ni(II) ionlarini aniqlashda xalaqit beruvchi begona ionlarni niqoblash uchun Cl⁻, NO₂⁻ ionlaridan 1:60 nisbatda qo'shildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan usul yetarlicha sezgirliги, aniqligi va selektivligi bilan ajralib turadi (6-jadval).

6-jadval.

Sun'iy aralashma tarkibidan Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini aniqlash natijalari

Aralashma tarkibi, mkg	Kiritilgan Cu(II), mkg	A	Topilgan Cu(II), mkg, X _i	S	S _r %	$\bar{X} \pm \Delta X$
K ⁺ , Na ⁺ , Br ⁻ (600); Mn ²⁺ , Ca ²⁺ (70); NH ₄ ⁺ , Ba ²⁺ , Al ³⁺ (80); TI ³⁺ , Pb ²⁺ (5); CH ₃ COO ⁻ (200); F ⁻ , PO ₄ ³⁻ (200); Fe ²⁺ (2)	10,0	0,2400	9,95	0,209	2,10	10,10±0,26
		0,2490	10,33			
		0,2450	10,16			
		0,2370	9,83			
		0,2470	10,25			
Aralashma tarkibi, mkg	Kiritilgan Zn, mkg	A	Topilgan Zn, mkg, X _i	S	S _r %	$\bar{X} \pm \Delta X$
K ⁺ , Na ⁺ (600); Bi ³⁺ , Co ²⁺ (0,2); NO ₂ ⁻ , Cl ⁻ (60); Hg ²⁺ (0,02); Ba ²⁺ , NO ₃ ⁻ (800); CH ₃ COO ⁻ (200)	12,0	0,2370	12,01	0,246	2,00	12,12±0,31
		0,2440	12,38			
		0,2400	12,17			
		0,2320	11,75			
		0,2420	12,27			
Aralashma tarkibi, mkg	Kiritilgan Ni(II), mkg	A	Topilgan Ni(II), mkg, X _i	S	S _r %	$\bar{X} \pm \Delta X$
K ⁺ , Na ⁺ (600); Bi ³⁺ , Co ²⁺ (0,2); NO ₂ ⁻ , Cl ⁻ (60); Hg ²⁺ (0,02); Ba ²⁺ , NO ₃ ⁻ (800); CH ₃ COO ⁻ (200)	12,0	0,2230	11,96	0,252	2,10	12,10±0,31
		0,2300	12,35			
		0,2270	12,18			
		0,2190	12,74			
		0,2290	12,29			

Cu(II), Zn va Ni(II) ionlarini BNOKS-S,S-3,6 bilan ishlab chiqilgan sezgir va selektiv spektrofotometrik uslub sanoat qotishmasining standart namunasini tahlil qilishda qo'llanildi. Tadqiqot davomida AK12MK 203-1, AK12MK 203-5, M 99-5 va M 123-1 markali polimetall va elementar tarkibga ega bo'lgan qotishmalardan foydalanildi.

Namunani analizga tayyorlash: 0,1000 gr AK12MK 203-1 va AK12MK 203-5 qotishmalaridan namuna olib (M123-1 va M99-50 markali qotishma namunalaridan 0,050 g) 50,0 ml li issiqqa chidamli stakanda 10,0-12,0 ml hajmdagi zar suvi eritmasidan (3HCl+HNO₃) qo'shildi, keyin elektro pechida yuqori haroratda namuna to'liq eriguncha qizdirildi va azot oksidlari chiqarib yuborildi. Sovutilgandan so'ng eritma 1000,0 ml (M123-1 va M99-50 markali qotishma namunalari 2000,0 ml) li o'lchov kolbalariga miqdoran o'tkazib belgisigacha bidistillangan suv bilan suyultirilib yaxshilab aralastirildi va ishlab chiqilgan uslublar bo'yicha analiz olib borildi. Olingan natijalar va ularni matematik qayta ishlashni hisoblashlari 7-jadvalda keltirildi.

7-jadval.

**Alyuminiy va misli standart sanoat qotishmalarida Cu(II) ionini aniqlash
uchun olingan natijalarni matematik qayta ishlash**

№	Alikvot qism tarkibidagi Cu(II) miqdori, mkg	A	Topildi Cu(II), mkg, Xi	$\bar{X} \pm \Delta X$	$X_i - \bar{X}$	$(X_i - \bar{X})^2$	S	S _r %
AK12MK 203-1								
1	6,6	0,1610	6,66	6,54±0,27	0,12	0,0144	0,1098	1,68
		0,1560	6,45		-0,09	0,0081		
		0,1570	6,50		-0,04	0,0016		
2	9,9	0,2400	9,95	9,84±0,25	0,11	0,0121	0,1007	1,02
		0,2370	9,83		-0,01	0,0001		
		0,2350	9,75		-0,09	0,0081		
3	13,2	0,3180	13,20	13,05±0,3 3	0,15	0,0225	0,1323	1,01
		0,3130	13,00		-0,05	0,0025		
		0,3120	12,95		-0,1	0,01		
AK12MK 203-5								
1	6,0	0,1480	6,12	6,11±0,25	0,01	0,0001	0,1007	1,65
		0,1500	6,20		0,09	0,0081		
		0,1450	6,00		-0,11	0,0121		
2	9,0	0,2170	9	9,02±0,32	-0,02	0,0004	0,1267	1,40
		0,2210	9,16		0,14	0,0196		
		0,2150	8,91		-0,11	0,0121		
3	12,0	0,2870	11,91	11,95±0,2 8	-0,04	0,0016	0,1116	0,93
		0,2860	11,87		-0,08	0,0064		
		0,2910	12,08		0,13	0,0169		
M 99-5								
1	4,1	0,1010	4,16	4,080±0,2 0	0,08	0,0064	0,080	1,96
		0,0970	4,00		-0,08	0,0064		
		0,0990	4,08		0,00	0		
2	5,6	0,1370	5,66	5,63±0,21	0,03	0,0009	0,0834	1,48
		0,1380	5,7		0,07	0,0049		
